



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 172 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zafaruz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugliy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinova	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning.....	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir kizi</i>	



MULOQOT MADANIYATI ASOSIDA LIDERLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Djumayeva Dildora Isroilovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Pedagogika va texnologik ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali pedagogik usullari yoritilgan. Tadqiqotda dialogik muloqot, rolli o’yinlar, jamoaviy topshiriqlar va reflektiv mashg’ulotlarning liderlik kompetensiyalariga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, muloqot madaniyatining emotsional intellekt, empatiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan o’zaro bog’liqligi ilmiy asoslangan. Olingan natijalar boshlang’ich maktabda liderlikni rivojlantirish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: muloqot madaniyati, emotsional liderlik, kichik maktab yoshi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, empatiya, jamoaviy ish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.

Abstract: This article highlights effective pedagogical methods for developing leadership qualities in primary school pupils through the enhancement of communication culture. The study analyzes the impact of dialogic communication, role-playing activities, group tasks, and reflective exercises on the formation of leadership competencies. Furthermore, the interrelationship between communication culture and emotional intelligence, empathy, and social adaptation processes is scientifically substantiated. The findings contribute to the development of practical recommendations for fostering leadership skills in primary school education.

Key words: communication culture, emotional leadership, primary school age, pedagogical technologies, interactive methods, empathy, teamwork, social-emotional development.

Аннотация: В данной статье раскрываются эффективные педагогические методы формирования лидерских качеств у учащихся младшего школьного возраста посредством развития культуры общения. В исследовании анализируется влияние диалогического общения, ролевых игр, групповых заданий и рефлексивных занятий на формирование лидерских компетенций. Кроме того, научно обоснована взаимосвязь между культурой общения, эмоциональным интеллектом, эмпатией и процессами социальной адаптации. Полученные результаты служат основой для разработки практических рекомендаций по развитию лидерства в начальной школе.

Ключевые слова: культура общения, эмоциональное лидерство, младший школьный возраст, педагогические технологии, интерактивные методы, эмпатия, социально-эмоциональное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o’quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish, xususan, emotsional liderlik sifatlarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, kichik maktab yoshida muloqot madaniyatining barqaror asoslarini yaratish kelajakdagi yetakchilik fazilatlarini uchun mustahkam zamin hozirlaydi. Chunki aynan shu davrda bola o’z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash, jamoada o’z o’rnini topish, mas’uliyat his qilish kabi muhim emotsional-ijtimoiy ko’nikmalarni egallay boshlaydi.

Muloqot madaniyati o’quvchi shaxsining emotsional rivojlanishida markaziy o’rin tutadi. Samarali muloqot qilish qobiliyati bolada empatiya, o’zini boshqarish, boshqa insonlarning hissiyotlarini anglash va baholash kabi liderlikka xos fazilatlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu bois boshlang’ich ta’lim jarayonida o’qituvchilar tomonidan muloqotga yo’naltirilgan interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilarning emotsional liderlik salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali pedagogik usullari o’rganilib, ularning o’quvchilarning shaxsiy hamda ijtimoiy-emotsional rivojiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish jarayonida muloqot madaniyatining o'zni ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda muloqot madaniyati o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, emotsional intellekti va ijtimoiy kompetensiyalarining shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida baholanadi.

H. Gardner, D. Goleman va P. Saloveylarning ilmiy ishlanmalarida emotsional intellektning kommunikativ jarayonlarga ta'siri, o'zaro tushunish, hamkorlik va empatiya kabi jihatlar alohida ta'kidlanadi. Mazkur sifatlar esa liderlikning asosiy komponentlari sifatida qaraladi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida bola nutqi va muloqoti orqali shaxs sifatida shakllanishi, kichik guruhlarda olib boriladigan muloqot jarayonlari bolaning ijtimoiylashuvini tezlashtirishi qayd etiladi. Ushbu yondashuv liderlik sifatlarining aynan jamoaviy faoliyat jarayonida rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Pedagogik texnologiyalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (Joyce & Weil, 2010; Johnson & Johnson, 2014) interfaol metodlar – "Aqliy hujum", "Rol o'yinlari", "Jamoaviy loyiha", "Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish" o'quvchilarda muloqot madaniyati, tashabbuskorlik, mas'uliyat va liderlik kabi kompetensiyalarni sezilarli darajada rivojlantirishi ko'rsatilgan. O'zbekistonlik olimlar S. Nishonova, R. Ishmuhamedov va B. Ziyomuhamedovlar ta'kidlaganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional rivojlanish hamda muloqot madaniyatini shakllantirish uchun treninglar, guruhli mashg'ulotlar va o'yinli pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

- muloqot madaniyati liderlikning tayanch omillaridan biri hisoblanadi;
- jamoaviy o'yinlar va dialogik yondashuvlar liderlikni rivojlantirishda samarali metod sifatida e'tirof etiladi;
- emotsional intellekt muloqot va liderlik o'rtasidagi asosiy bog'lovchi mexanizm hisoblanadi;
- kichik maktab yoshida berilgan kommunikativ treninglar liderlik kompetensiyalarining barvaqt shakllanishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda muloqot madaniyati orqali liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali metodlarini aniqlash maqsad qilingan. Shu bois, tadqiqot metodologiyasi pedagogik eksperiment, kuzatuv, diagnostika va interfaol mashg'ulotlarga asoslangan tajribaviy yondashuvni o'z ichiga oladi. Tadqiqot jarayonida nazariy metodlardan, xususan, ilgari chop etilgan ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va maqolalarni tahlil qilish, muloqot madaniyati hamda liderlikka oid nazariy konsepsiyalarni solishtirish, shuningdek, psixologik-pedagogik manbalardan umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik metodlar sifatida o'quvchilarning muloqot jarayoni, guruhdagi roli va faolligini o'rganishga qaratilgan kuzatuv, o'qituvchi va o'quvchilar bilan individual suhbatlar orqali kommunikativ muammolarni aniqlash, o'quvchilarning o'zaro muloqot malakalari va liderlik darajasini baholashga qaratilgan so'rovnoma, empatiya va emotsional intellekt darajasini aniqlash uchun psixologik testlar hamda interfaol mashg'ulotlar, roli o'yinlar va jamoaviy topshiriqlarni qo'llash orqali liderlik fazilatlarining rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiluvchi pedagogik eksperimentdan foydalanildi.

Olingan natijalarni tahlil qilishda statistik metodlar qo'llanilib, ma'lumotlar qayta ishlash, guruhlar o'rtasida taqqosiy tahlil o'tkazish, o'rtacha ko'rsatkichlar, rivojlanish dinamikasi va foiz hisoblari amalga oshirildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'quvchilarda muloqot madaniyati va liderlik fazilatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan treninglar ishlab chiqildi, interfaol metodlar asosida sinfda qo'llash mumkin bo'lgan mashg'ulotlar to'plami yaratildi hamda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi o'quvchilar orasida muloqot madaniyati bilan liderlik fazilatlarini o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, dialogik muloqot, jamoaviy o'yinlar hamda rollarga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning tashabbus ko'rsatish, boshqalarni tinglash, guruhni boshqarish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi liderlik komponentlarini faol shakllantirishi aniqlandi. Tajriba jarayonida kuzatilganidek, kommunikativ jihatdan faol o'quvchilar guruh ishlarida yetakchi rolni egallashga moyil bo'lishdi. Aksincha, muloqotda qiynaladigan, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaydigan o'quvchilar dastlab past liderlik ko'rsatkichlariga ega bo'lishdi. Biroq interfaol yondashuvlar – "rol o'yinlari", "munozara", "aqliy hujum" – muntazam



qo'llanilganda ushbu o'quvchilarning ham faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Shuningdek, muloqot madaniyatining emotsional intellekt yuksalishi bilan uyg'un ravishda rivojlanishi aniqlandi. Empatiya, o'zini boshqalar o'rniga qo'ya bilish va ijobiy fikrlash kabi sifatlar o'quvchilarning jamoani boshqarish hamda tengdoshlar bilan samarali hamkorlik qilish darajasini yaxshiladi. Tadqiqot jarayonida o'qituvchi tomonidan berilgan konstruktiv fikr-mulohazalar va reflektiv suhbatlar o'quvchilarning o'z-o'zini anglash jarayonini kuchaytirib, bu holat liderlik fazilatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Muhokama natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar chiqarildi: muloqot madaniyati liderlik fazilatlarining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi; o'z fikrini aniq ifoda etish, boshqalarni tinglash va muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari liderlikning tarkibiy qismi hisoblanadi; jamoaviy interfaol metodlar liderlikni rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi; bu metodlar o'quvchilarga mas'uliyatni bo'lishish, guruhni boshqarish va tashabbus ko'rsatishni o'rgatadi; emotsional hamda ijtimoiy kompetensiyalar liderlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi; empatiya va emotsional barqarorlik kuchli liderlar uchun muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi; kommunikativ treninglar muntazam amalga oshirilganda o'quvchilarda barqaror ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi, bu esa pedagogik jarayonda tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar boshlang'ich maktabda liderlik kompetensiyalarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlovchi didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish, o'qituvchilarni tayyorlash va o'quv dasturlariga kommunikativ treninglarni kiritish zarurligini asoslab beradi. Tadqiqot davomida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali liderlik fazilatlarini shakllantirishning samaradorligi tajriba va nazorat guruhlarida misolida o'rganildi. Olingan natijalar muloqot madaniyati ko'rsatkichlarining sezilarli oshganini ko'rsatdi: tajriba guruhida o'quvchilarning o'z fikrini aniq va ravon ifoda etishi, tengdoshlarini tinglashi hamda muloqotda madaniyatli yondashuvi bo'yicha ko'rsatkichlar 30–40% ga yaxshilandi, bu esa interfaol metodlar va dialogik mashg'ulotlar samaradorligini tasdiqladi.

Shuningdek, tajriba guruhidagi o'quvchilarning tashabbuskorlik, mas'uliyat, jamoani boshqarish va qaror qabul qilish kabi liderlik kompetensiyalari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo'ldi. Ayniqsa, jamoaviy o'yinlar va rolli mashg'ulotlar o'quvchilarning faol yetakchi sifatida ishtirok etish darajasini oshirdi. O'quvchilarda boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, hamdardlik bildirish va ijobiy muloqotga kirishish qobiliyatlari kuchaydi, bu esa liderlikning emotsional komponentlarini mustahkamladi. Tajriba guruhidagi o'quvchilar guruh vazifalarini taqsimlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish jarayonlarida yuqori natijalarga erishdi, natijada jamoaviy ishdagi faollik 20–25% ga oshdi. Statistik tahlillar muloqot madaniyati bilan liderlik ko'nikmalari o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatdi, ya'ni kommunikativ kompetensiyalar kuchaygani sari liderlik fazilatlarini ham izchil rivojlandi. Shuningdek, "aqliy hujum", "rol o'yinlari", "munozara" va "jamoaviy loyiha" kabi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning muloqotga kirishishi va liderlikni namoyon etishida eng samarali vositalardan biri ekanligi tasdiqlandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda liderlik fazilatlarini shakllantirish jarayonida muloqot madaniyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Muloqotga tayyorlik, o'z fikrini ravon bayon eta olish, tengdoshlarni tinglash, hamkorlikka kirisha olish kabi kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishi o'quvchilarning liderlik salohiyatini sezilarli darajada kuchaytiradi. Tajriba jarayonida qo'llangan dialogik yondashuvlar, rolli o'yinlar, jamoaviy vazifalar, reflektiv mashg'ulotlar va interfaol pedagogik metodlar o'quvchilarning tashabbuskorligi, mas'uliyati hamda jamoada yetakchi sifatida ishtirok etish qobiliyatini ancha rivojlantirgani aniqlandi. Bu esa muloqot madaniyatini shakllantirish liderlikka olib boruvchi asosiy pedagogik mexanizmlardan biri ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, muloqot madaniyati emotsional intellekt, empatiya va ijtimoiy moslashuv kabi shaxsiy sifatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning barqaror rivojlanishi o'quvchi shaxsining yetuklashuviga xizmat qiladi. O'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, muloqotga ochiqlikni ta'minlash va do'stona muhit yaratish orqali liderlik kompetensiyalarining tabiiy hamda izchil shakllanishi uchun qulay shart-sharoit vujudga keladi.

Umuman olganda, tadqiqot asosida aniqlangan metodlar va yondashuvlar boshlang'ich ta'lim jarayonida liderlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik tizimni yaratish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu natijalar o'qituvchilar, metodistlar va pedagogika yo'nalishidagi tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Prentice Hall.
2. Brackett, M. A., Rivers, S. E., Reyes, M. R., & Salovey, P. (2019). Emotional intelligence in the classroom: RULER approach. Yale University Press.



3. Gardner, H. (2011). *Frames of mind: The theory of multiple intelligences* (3rd ed.). Basic Books.
4. Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ*. Bantam Books.
5. Ishmuhamedov, R., & Abduqodirov, A. (2017). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2014). *Cooperation in the classroom: Educational psychology*. Interaction Book Company.
7. Joyce, B., Weil, M., & Calhoun, E. (2015). *Models of teaching* (9th ed.). Pearson.
8. Nishonova, S. (2019). *Pedagogik muloqot va uning shaxs rivojlanishidagi o'rni*. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185–211.
10. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
11. Djumayeva, D. (2024). Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda liderlik sifatleri shakllanishining ahamiyati. "Pedagogicheskaya akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali, 9(17).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.